



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 11-sinflar uchun*  
*III chorak jahon tarixi fanidan*

# **DARS**

# **ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 11-sinf jahon tarixi fanidan III chorak  
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari. <b>(Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e‘lon qilish)</b>	1		
2.	Xitoy Xalq Respublikasi.	1		
3.	Yaponiya va Koreya.	1		
4.	Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari.	1		
5.	Hindiston Respublikasi.	1		
6.	Turkiya Respublikasi.	1		
7.	<b>BSB 2. (50 ball) Loyiha ishi taqdimoti</b>	1		
8.	Eron Islom Respublikasi.	1		
9.	Pokiston va Afg‘oniston.	1		
10.	Suriya va Iroq.	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari. (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e'lon qilish)**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** 1991-yildan boshlangan davrida dunyoning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimida katta o'zgarishlar ro'y berganligi, bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan omil ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi — kompyuter-axborot inqilobi bo'lganligi, bu inqilob ta'siri ostida rivojlangan mamlakatlarda sivilizatsiyaning industrial bosqichidan postindustrial, axborot bosqichiga o'tish boshlanganligi haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichini tahlil qilish va mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida turgan o'quvchilarga o'z hayotiy istiqbolini belgilab olish imkonini beruvchi bilimlarni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** jahon xalqlari madaniyatining har biri o'ziga xos noyob ekanligini, gumanizm va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g'oyalari asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglashga ko'maklashish, jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini bilib olish, rivojlanishning o'ziga xos yo'llarini tushunish va istiqbollari haqida tushuncha berish.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.**

## II. FK-fanga oid kompetensiyalar

**1.FK1-** Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:

**2.FK2-** Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

### III. Yangi mavzu bayoni:

2025 - yil iyun oyiga kelib, Yer yuzi aholisi soni 8,2 milliard kishidan ortib ketdi. Bu aholining 75% i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida yashaydi. Ammo xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha jahon YIMning taxminan 40% i ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlar aholisining 3/4 qismini kambag'allar, mehnatga layoqatli aholining 1/3 qismini esa ishsizlar tashkil qiladi. Hatto barqaror yuqori o'sish sur'atlarini namoyish qilayotgan Xitoy, Hindiston, Misr, Jazoir, Filippin kabi mamlakatlarda ham daromadning aholi jon boshiga miqdori rivojlangan mamlakatlardan ancha ortda qolmoqda. Hamma mamlakatlar ham YIMning aholi jon boshiga o'sishini ta'minlay olmadir. XX asr oxirida aholi jon boshiga daromadning o'sishi Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan 43 ta Afrika mamlakatining faqat 8 tasida, 16 ta arab mamlakatining faqat 2 tasida kuzatilgan, xolos. Shuningdek, XX asr oxiriga kelib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida modernizatsiya muammolari chuqurlashib bordi. Bunda "sovuq urush"ning yakunlanganligi ham ma'lum rol o'ynadi. SSSRdan yordam olib turgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi mamlakatlar u tarqalib ketgandan so'ng og'ir sharoitga tushib qoldi. Biroq ittifoq tarkibidagi turkiy tilli respublikalar mustaqillikka erishdi. Til,

madaniyat va tarixiy rishtalarga ega bo'lgan davlatlar endi xalqaro munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida harakat qila boshladi. Turkiya Respublikasi Prezidenti Turgut O'zal tashabbusi bilan Anqara shahrida Turkiy tilli davlatlarning birinchi sammiti bo'lib o'tdi, unda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya, O'zbekiston davlatlari ishtirok etdi. Sammitda ishtirokchilar siyosiy va iqtisodiy birlik o'rnatilishini e'lon qilishdi. 2018-yil sentyabrda Cho'lponota shahrida o'tkazilgan sammitda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning faxriy mehmon sifatidagi ishtiroki bu borada tarixiy qadam bo'ldi. 2019-yilda O'zbekiston Naxichevan bitimini ratifikatsiya qilib, o'sha yili oktyabrda tuzilmaga rasmiy qo'shildi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ushbu va boshqa muammolarning sabablari turlicha bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'pchilik, ayniqsa, Afrika mamlakatlari mustaqillikka erishgan davrda rivojlanish darajasining pastligi;
- aksariyat hollarda harbiy mojarolarga olib kelgan geosiyosiy omillar;

- mustaqillikka erishilgandan so'ng tanlangan taraqqiyot modeli;

- siyosiy tizimning barqaror emasligi (masalan, 1990-yildan beri Afrika mamlakatlarida 27 ta davlat to'ntarishi amalga oshirilgan bo'lib, shulardan 17 tasi 2020-yildan so'ng yuz berdi);

- rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining jahon bozoridagi konyunkturaga bog'liqligi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy qoloqligining ko'plab boshqa sabablari qatorida birinchi o'rinda Osiyo va Afrika mamlakatlarida XX asr oxirida kuzatilgan "demografik portlash" ni aytish mumkin. Tibbiyotning yutuqlari o'rtacha umr ko'rishning ikki barobarga o'sishini, bolalar o'limining pasayishini, ilgari yuz minglab kishilarning o'limiga sabab bo'lgan ko'plab yuqumli kasalliklarning bartaraf etilishini ta'minladi. Resurslar cheklangan holda aholining shiddat bilan o'sishi bu mamlakatlardagi ko'plab yechilmayotgan muammolarning manbayiga aylandi. Masalan, so'nggi yetmish

yilda Afrika aholisi olti barobardan ko'proqqa o'sdi. Ya'ni Afrika aholisi 1955-yili 252 million kishi bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 1,54 milliard kishini tashkil qildi. Bunday holatda mamlakat YIMining hozirgi o'sish darajasi uning aholi jon boshiga o'sishini ham ta'minlamaydi. Ko'plab Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish ortidan aholi yashash darajasining ham keskin yuksalishi yuz bermadi. YIMning o'sishi ushbu mamlakatlardagi modernizatsiya jarayonlariga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmadi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari modernizatsiyalash jarayonida qanday muammolarga duch kelmoqda?

2. Janubiy Osiyo mamlakatlari rivojlanishidagi o'ziga xos tomonlar nimalardan iborat?

3. Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asr oxirlarida o'z oldida turgan qanday muammolarni hal qilish yo'llari nima?


**V. O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Konseptual jadval asosida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari o'ziga xosliklarini tahlil eting.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)



*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**29 listdan iborat 11-sinf jahon tarixi fanidan III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**